

Mehnat faxriylari doim e'zozda

Insonning mehr oqibati diydorda, tez-tez yo'qlab turishda. SHuning uchun ham mehr ko'zda deyishadi. Bayram bahona ustozlar holidan xabar olishga yana bir imkon yaratildi. "Hayot faoliyati kafedrası" professor-o'qituvchilari jamoasi 9-may "Xotira va qadrlash kuni" arafasida kafedrada uzoq yillar davomida mehnat qilgan, dotsent, t.f.n., Gazinazarova Siddiqa Masxarovnaning xonardoniga tashrif buyurishdi. Tashrif davomida mehnat faxriysiga institut rahbariyatining tabrigi va esdalik sovg'alari topshirildi.



TIQXMMI matbuot xizmati